

“Toshkent Metallurgiya Zavodi” MChJ QK

**BIZNES HAMKORLAR UCHUN AXLOQ KODEksi**

Toshkent sh.

## Mundarija

1.	Umumiy qoida	3
2.	Korxona biznes hamkorlari	3
3.	Qo'llanilish doirasi	3
4.	Umumiy tamoyillar	3
5.	Axloq-odob	3
6.	Ishda halollik	3
7.	Erishilgan yutuqlar bilan to'xtab qolmaslik	4
8.	Tegishli tekshiruv (Due Diligence – Yuridik ekspertiza)	4
9.	Amaldagi qonunlarga rioya qilish	4
10.	Korrupsiya va poraxo'rlik	4
11.	Sovg'alar va vakillik xarajatlari	4
12.	Shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligi va himoyasi	5
13.	Raqobatni cheklovchi harakatlar	5
14.	Manfaatlar to'qnashuvi	5
15.	Intellektual mulk	5
16.	Pul mablag'larini legallashtirish	6
17.	Og'zaki shakldagi shartnomalarni taqiqlash	6
18.	Xalqaro savdo va iqtisodiy sanksiyalar	6
19.	Inson huquqlari	6
20.	Majburiy mehnat	6
21.	Bolalar mehnati	6
22.	O'zaro munosabatlarning ochiqligi va halolligi	6
23.	Kamsitishga yo'l qo'ymaslik	6
24.	Sog'liqni va mehnatni muhofaza qilish	6
25.	Atrof-muhitni muhofaza qilish va ifloslanishning oldini olish	7
26.	Mineral xom ashyo manbalarini tanlashga mas'uliyat bilan yondashish	7
27.	Hisob-kitobning aniqligi va to'liqligi	7
28.	Ushbu Kodeksga rioya qilish uchun komplaens dasturi	7
29.	Qoidabuzarliklar haqida xabardor qilish	7

## **1. Umumiy qoida**

Ushbu Biznes hamkorlar uchun axloq Kodeksi (keyingi o'rirlarda Kodeks deb yuritiladi) "Toshkent Metallurgiya Zavodi" MChJ QK (keyingi o'rirlarda Korxona) Biznes hamkorlariga qo'yiladigan asosiy talablarni belgilaydi.

## **2. Korxona Biznes hamkorlari**

Jahon iqtisodiyotida keng qamrovli aloqalarning rivojlanishi munosabati bilan Korxona yanada yaxshi ta'minot tizimini joriy etishga intiladi. Bizga raqobatbardosh narxlarda yuqori sifatli, innovatsion mahsulotlar va xizmatlarni taqdim etuvchi, biznesimiz xavf-xatarlarini kamaytirishga yordam beruvchi, amaldagi barcha qonunlarga rioya qiluvchi, eng yuqori axloqiy me'yorlarga amal qiluvchi, mijozlarimiz (xaridorlarimiz) uchun haqiqiy qo'shimcha qiymat yaratib beruvchi va kamida ushbu Kodeksda belgilangan talablarga javob beruvchi o'z ta'minotchilarimiz, agentlarimiz, pudratchilarimiz, vositachilarimiz, dilerlarimiz, distribyutorlarimiz, xizmat ko'rsatuvchi provayderlarimiz va boshqa biznes sheriklarimiz (birgalikda "Biznes hamkorlar" deb ataladi) bilan munosabatlarni qadrilaymiz.

Korxona o'zining barcha tashkiliy ishlarida va faoliyatida korporativ ijtimoiy mas'uliyatni namoyon etishga intiladi va inson huquqlari, ish joyida sog'liqni muhofaza qilish va xavfsizlik, atrof-muhitni muhofaza qilish, korrupsiya va poraxo'rlik bilan kurashishni ustuvor o'ringa qo'yadi.

Ushbu Kodeks korxonaning Biznes hamkorlari tomonidan belgilangan talablarga qo'shimcha ravishda javob berishi kerak bo'lgan talablarni belgilaydi:

- amaldagi milliy va xalqaro qonunlar;
- shartnoma qoidalari.

Biz Biznes hamkorlarimizdan Korxona uchun olib boriladigan biznesga tegishli qonun va qoidalarga rioya qilishlarini kutamiz. Biznes hamkorlardan ushbu Kodeksda belgilangan tamoyillarni qo'llashlari yoki shunga ekvivalent bo'lgan tamoyillardan foydalanishlari kutilmoqda. Agar ushbu Kodeksning biron bir qismi tushunarsiz bo'lsa, Biznes hamkor izoh uchun Korxonadagi o'zining aloqa bog'lovchi shaxsiga murojaat qilishi kerak.

Ushbu Kodeksga rioya qilmaslik ishbilarmonlik munosabatlarini tugatishgacha bo'lgan choralar ko'rlishiga olib kelishi mumkin.

## **3. Qo'llanilish doirasi**

Ushbu Kodeks Korxonaning Biznes hamkorlariga, shuningdek, uning mahsulotlari va xizmatlarini sotuvchi litsenziyaga ega yoki vakolatli distribyutor yoki rasmiy diler sifatida faoliyat yurituvchi sho'ba va bo'y sunuvchi korxonalari, subpudratchilar va agentlariga nisbatan qo'llaniladi. Biz Biznes hamkorlarni o'z sheriklaridan ushbu Kodeks tamoyillarini tegishli darajada tan olishni talab qilishlarini ta'kidlaymiz.

## **4. Umumiy tamoyillar**

Ijtimoiy mas'uliyatli Korxona sifatida faoliyat yuritib, inson huquqlarini hurmat qilgan va axloqiy xulq-atvor va kasbiy faoliyatning eng yuqori standartlariga rioya qilgan holda Korxona uzoq muddatli istiqbolda biznes samaradorligini oshirmoqda. Biz ushbu tamoyillarga to'liq sodiqmiz va Biznes hamkorlarimizdan ushbu sodiqlikni baham ko'rishlarini va ushbu Kodeksda belgilangan majburiyatlarni bajarishlarini talab qilamiz. Ushbu Kodeks metallurgiya sanoatining ilg'or tajribasini, boshqa xalqaro, qonunchilik va me'yoriy hujjatlar talablarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

## **5. Axloq-odob**

Korxona va Biznes hamkorlar juda katta imkoniyatlarga boy ko'plab istiqbolli va dinamik bozorlarda faoliyat yuritadi, ular, lekin ularning faoliyati ayni paytda axloqiy va operatsion nuqtai nazardan jiddiy xavflar bilan bog'langan. Bunday xavf-xatarlarni boshqarishning eng ishonchli

yo‘li amaldagi barcha qonunlarga, jumladan, O‘zbekiston Respublikasida amaldagi korrupsiyaga qarshi va poraxo‘rlik to‘g‘risidagi qonunlarga rioya qilishdir. Axloqsiz oqibatlarga yoki amaldagi qonunlarning buzilishiga olib keladigan xavflarni o‘z zimmalariga olmaydigan Korxona ham, Biznes hamkorlar ham har qanday faoliyat bilan shug‘ullanishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

## **6. Ish faoliyatdagи halollik**

Biz axloqda halollikning shubhasiz qiymatini va uning ham qisqa, ham uzoq muddatli istiqbollardagi biznesimiz uchun ahamiyatga ega ekanligini tan olamiz. Bu shunchaki so‘zlar emas. Bu bizning qadriyatlarimiz. Halollik va ishbilarmonlik etikasi muhim ahamiyatga ega. Agar siz har qanday vaziyatda ham to‘g‘ri yo‘l tutsangiz, u doimo qadrlanadi. Biz Biznes hamkorlarimiz bilan birgalikda tijorat faoliyati samaradorligini oshirish va ushbu Kodeksga rioya qilish ustida doimiy ish olib bormoqdamiz.

Halollik madaniyatimizning poydevor toshidir. Qadriyatlar va halollik bo‘yicha yetakchi sifatida tan olinish Korxona obro‘sining asosiy harakatlantiruvchi kuchi va muvaffaqiyatimiz asosidir. Biznes hamkorlarning axloqi Korxonaning obro‘siga ta’sir qiladi. Agar Biznes hamkor ushbu Kodeks standartlariga rioya qilmasa, u kelajakdagi buyurtmalar uchun Korxonaning afzal ko‘rgan Biznes hamkor bo‘lmaydi va mavjud ishbilarmoblik munosabatlar to‘liq yoki qisman tugatilishi mumkin.

## **7. Erishilgan yutuqlar bilan to’xtab qolmaslik**

Ushbu Kodeksda belgilangan muayyan talablar Biznes hamkorlar uchun minimal standartlardir. Biz Biznes hamkorlarga, garchi ular O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi nazarda tutilmagan bo‘lsa ham, yanada yuqoriqoq standartlarga amal qilishni tavsiya qilamiz.

## **8. Tegishli tekshiruv.**

Biznes hamkorlarni tanlashda Korxona mavjud risklarni hisobga olgan holda zarur bo‘lgan darajada tekshiruv o‘tkazadi. Sharhnomani imzolashdan oldin barcha Biznes hamkorlar korrupsiyaga qarshi tekshiruvdan o‘tadilar. Biznes hamkorlar Korxonaga tekshirish jarayonida barcha anketalar va hujjat namunalarini to‘ldirish, so‘ralgan hujjatlarni hamda mulkdorlar va filiallar to‘g‘risidagi aniq ma’lumotlarni o‘z vaqtida taqdim etish orqali yordam berishlari shart.

## **9. Amaldagi qonunlarga rioya qilish**

Biznes hamkorlar o‘zlari faoliyat yuritayotgan mamlakatlarning barcha amaldagi qonunlari, qoidalari va standartlariga rioya qilishlari shart. Amaldagi qonun va ushbu Kodeks bir xil masalani tartibga solsa va bir-biriga zid bo‘lmasa, qat‘iyroq standart qo‘llaniladi. Agar ushbu Kodeksning har qanday talabi amaldagi qonunchilikka zid bo‘lsa, amaldagi qonunchilikka mos keladigan eng qat‘iy standart qo‘llaniladi.

## **10. Korrupsiya va poraxo‘rlik**

Biz to‘g‘ridan-to‘g‘ri e‘lon qilamiz: Korxona korrupsiya va poraxo‘rlikni hech qanday shaklda qabul qilmaydi

Korxona korrupsiya, poraxo‘rlik, tijoratga oid poraxo‘rlik, firibgarlik, noqonuniy o‘zlashtirish, o‘g‘irlik va kamomadni qat‘iy taqiqlaydi. Biznes hamkorlar korrusiyaga qarshi kurash bo‘yicha barcha amaldagi qonunlarga rioya qilishlari va ularning operatsiyalarini aks ettiruvchi va noto‘g‘ri yoki chalg‘ituvchi ma’lumotlarni o‘z ichiga oluvchi tegishli yozuvlarni yuritishlari shart. Biznes hamkorlar Korxona uchun noqonuniy foyda olish uchun boshqa shaxs orqali bevosita yoki bilvosita hech kimga pul yoki boshqa qimmatbaho narsalarni bermaslik, taklif qilmaslik, talab qilmaslik yoki qabul qilishga rozilik bermaslik majburiyatini oladi.

Biznes hamkorlardan qonunga hilof bo‘lgan xatti-harakatlar va yuz berishi mumkin bo‘lgan qonunbuzarliklarning oldini olish va to‘xtatish uchun o‘zlarining korrupsiyaga qarshi komplaens dasturlarini amalga oshirishlari va qo‘llab-quvvatlashlari kutiladi.

## **11. Sovg'alar va vakillik xarajatlari**

Biznes hamkorlar Korxona xodimlariga yoki vakillariga ta'sir o'tkazish maqsadida ularga sovg'alar taklif qilmaslik, vakillik tadbirlarni tashkil etmaslik yoki boshqa imtiyozlarni bevosita yoki bilvosita ko'rsatmaslik, shuningdek tanlov g'olib bilan muzokaralar olib borish, tanlov tartibi yoki shartnoma tuzish jarayonida narxidan qat'i nazar, Korxona xodimlariga sovg'alar taklif qilmaslik va vakillik tadbirlarni tashkil etmaslik majburiyatini ham o'z bo'yninga oladi.

## **12. Shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligi va himoyasi**

Biznes hamkorlar Korxonaning xo'jalik faoliyatiga, uning shartnomalariga, loyihamlariga, moliyaviy holatiga yoki ko'rsatkichlariga taalluqli barcha ma'lumotlarga nisbatan, agar Korxona bilan boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa maxfiylikni saqlashlari shart. Biznes hamkorlar shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha ular bilan ish yuritadigan shaxslarning aniq maqsadlari va umidlariga muvofiqligini ta'minlashlari shart. Biznes hamkorlar shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishslash va uzatish bilan bog'liq holda ma'lumotlarning yaxlitligi va xavfsizligiga oid qonunlar va qoidalarga rioya qilishlari shart.

Biznes hamkorlar mijozlarning shaxsiy ma'lumotlarining xavfsiz saqlanishini ta'minlashlari va ularni oshkor qilishga imkon bermasliklari shart. Biznes hamkorlar ma'lumotlarning tegishli himoyasini, ma'lumotlar xavfsizligi tizimlarining ishonchligini va Korxonaning shaxsiy ma'lumotlari bilan ishlaydigan xodimlarining harakatlarini to'g'ri nazorat qilishni ta'minlashlari shart.

## **13. Raqobatni cheklovchi harakatlar**

Biznes hamkorlar raqobat to'g'risidagi qonunlarni va monopoliyaga qarshi talablarni buzmaslik, shuningdek ularni buzish uchun til biriktirmaslik majburiyatini oladi. Biznes hamkorlar adolatli biznes yuritish, reklama va raqobat standartlariga rioya qilishlari shart.

## **14. Manfaatlar to'qnashuvi**

Biznes hamkorlar Korxonaga tegishli bo'lishi mumkin bo'lgan haqiqiy, potentsial yoki taxmin qilingan manfaatlar to'qnashuvlarini Korxona e'tiboriga yetkazishlari shart. "Manfaatlar to'qnashuvi" deganda tomon o'z moliyaviy yoki shaxsiy manfaatlarini o'z majburiyatlaridan ustun qo'yishi mumkin bo'lgan yoki bunday tomonning mulohazalari, qarorlari yoki harakatlari noxolis bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday haqiqiy, potentsial yoki taxmin qilingan holatni anglatadi. Biznes hamkorlar ishbilarmonlik munosabatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan har qanday manfaatlar to'qnashuvidan qochishlari kerak

## **15. Intellektual mulk**

Biznes hamkorlar intellektual mulk huquqlarini hurmat qilishlari shart. Texnik yechimlarni Biznes hamkorlarga o'tkazish tartibi intellektual mulk huquqlarini himoya qilingan holda ta'minlashi kerak.

## **16. Pul mablag'larini legallashtirish**

Biznes hamkorlar jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishning har qanday shakliga keskin qarshi turishlari va Biznes hamkorlar tomonidan amalga oshirilgan moliyaviy operatsiyalar uchinchi shaxslar tomonidan jinoiy daromadlarni legallashtirish maqsadida foydalanilmasligini ta'minlash choralarini ko'rishlari shart.

## **17. Og'zaki shakldagi shartnomalarini taqiqlash**

Korxona Biznes hamkorlar bilan og'zaki shaklagi bitimlar tuzishni taqiqlaydi. Xizmatlarni taklif qilish va tovarlarni Korxona manziliga yetkazib berish uchun barcha shartlar shartnoma majburiyatlarini bajarish boshlanishidan oldin kelishib olinadi va yozma ravishda qayd etiladi.

## **18. Xalqaro savdo va iqtisodiy sanksiyalar**

Biznes hamkorlar amaldagi xalqaro savdo sohasidagi qonunlar va normativ hujjatlarga (jumladan, import/reimport va eksport/reeksport nazorati) hamda iqtisodiy sanksiyalarga rioya qilishlari shart. Biznes hamkorlar bunday tomonlar bilan yoki amaldagi qonunlar yoki normativ hujjatlarga muvofiq bitimlar taqiqlangan yurisdiktsiyalarda ish olib bormaslik majburiyatini oladilar.

## **19. Inson huquqlari**

Biznes hamkorlar BMT tomonidan qabul qilingan inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasida belgilangan inson huquqlarini hurmat qilishlari va ularga rioya qilishlari shart. Biznes hamkorlar inson huquqlarining har qanday buzilishi bilan bog'liq bo'lган hamkorlik qilishdan saqlanishlari shart va har doim shaxsiy qadr-qimmatini, shaxsiy ma'lumotlarning daxlsizligini va har bir shaxsning huquqlarini hurmat qilishga majburdirlar. Biznes hamkorlar xodimlarga nisbatan nomaqbul munosabatda bo'lishning har qanday shakliga, jumladan, ma'naviy ta'qiblar, jismoniy tajovuzlar, imkoniyati cheklangan shaxslar huquqlarining buzilishi, qullik va jinsiy zo'ravonlik kabi holatlarga yo'l qo'ymasliklari kerak.

## **20. Majburiy mehnat**

Biznes hamkorlar majburiy mehnat, qarzdorlikka qaram, ixtiyoriy yoki majburiy mehnatning hech qanday shakllaridan foydalanmasligi kerak. Biznes hamkorlar ishga joylashtirish sharti sifatida xodimlardan davlat tomonidan berilgan shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar, pasportlar yoki ishslash uchun ruxsatnomalarni topshirishni talab qila olmaydi. Biznes hamkorlar va ularning xodimlari o'rtasidagi mehnat munosabatlari ixtiyoriy bo'lishi va tahdid, qo'rqtish yoki majburlashga asoslanmagan bo'lishi kerak.

## **21. Bolalar mehnati**

Biznes hamkorlar bolalar mehnatidan foydalanmasliklari kerak. Amaldagi qonunchilikda ishslash uchun eng kichik yosh belgilanmagan bo'lsa, "bola" deganda 15 yoshga to'Imagan har qanday shaxs tushuniladi. Eng kichik ish yoshi Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) konventsiyalarida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining mehnat qonunchiligidagi belgilangan.

## **22. O'zaro munosabatlarning ochiqligi va halolligi**

Biznes hamkorlar xodimlar va rahbariyat o'rtasida o'ch olish, qasos olish, qo'rqtish yoki ta'qib qilish kabi hadiksirashlar mavjud bo'lmagan holda ochiq va halol munosabatlarni saqlab turishlari va qonun bilan imkon qadar xodimlarning birlashish erkinligi huquqini tan olishlari shart.

## **23. Kamsitishga yo'l qo'ymaslik**

Biznes hamkorlar xodimlarni ta'qib qilish (shilqimlik) va ularning noqonuniy kamsitishlarini oldini olishga majburdirlar. Biznes hamkorlar qonun bilan qo'riqlanadigan har qanday toifa yoki yosh, irqi, teri rangi, etnik kelib chiqishi, mahalliy maqomi, jinsi, jinsiy identiklik yoki jinsiy ifodasi, nogironligi, homiladorligi, sog'lomlik holati, diniy e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi yoki holati, siyosiy tarafdarligi, sanoat birlashmalari yoki kasaba uyushmalarida ishtiroy etishi, ishga qabul qilishda yoki mehnat munosabatlari jarayonida oilaviy holati yoki faxriy maqomi, masalan, lavozimga ko'tarilish, mukofotlar va o'quv-mashg'ulotidan foydalanish imkoniyati bilan bog'liq bo'lган har qanday kamsitishlarga yo'l qo'ymaslikka majburdirlar.

## **24. Sog'liqni va mehnatni muhofaza qilish**

Xalqaro standartlar, milliy qonunlar va normativ hujjatlarga muvofiq Biznes hamkorlar sog'lom va xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratishlari shart. Mehnatni muhofaza qilish va ishlab chiqarish xavfsizligi bo'yicha majburiyatlar Biznes hamkor nazorati ostidagi barcha shaxslarga,

shu jumladan Biznes hamkorning binolarida ishlaydigan xodimlar va pudratchilarga nisbatan qo'llaniladi. Korxona hududida yoki Korxona manfaatlaridan kelib chiqqan holda bajariladigan ishlar bilan bog'liq barcha halokathi va jiddiy jarohatlar haqida hisobotda aks ettirilishi kerak.

## **25. Atrof-muhitni muhofaza qilish va ifloslanishning oldini olish**

Biznes hamkorlar amaldagi atrof-muhitni muhofaza qilish standartlariga muvofiq harakat qilishlari va amaldagi tabiatni muhofaza qilish sohasidagi qonunlarga rioya qilishlari, o'z ishlarida tegishli mas'uliyatni his qilishlari shart. Kam rivojlangan yoki to'g'ri qo'llanilmagan qonunchilikka ega mamlakatlarda Biznes hamkorlar atrof-muhit ifloslanishini minimallashtirishga harakat qilishlari shart. Ekologik yoki ijtimoiy vaziyatni yaxshilaydigan mahsulot va xizmatlarning innovatsion o'zgarishlari, shuningdek, ekologik toza texnologiyalardan foydalanish har tomonlama qo'llab-quvvatlanishi kerak. Biznes hamkorlar odamlarning hayoti va sog'lig'i, tabiat va atrof-muhit uchun salbiy oqibatlarga olib keladigan faoliyat sohalarida vaziyatni to'g'irlash choralarini ko'rishlari shart.

## **26. Mineral xom ashyo manbalarini tanlashga mas'uliyat bilan yondashish**

Biznes hamkorlar o'z mahsulotlarida qazib olinishi bevosita yoki bilvosita inson huquqlari buzilishiga aloqador qurolli guruhlar tomonidan moliyalashtiriladigan xom ashylardan foydalanishni istisno qilish uchun oqilona choralar ko'rishlari shart.

## **27. Hisob-kitobning aniqligi va to'liqligi**

Biznes hamkorlar hisoblash ma'lumotlarini soxtalashtirishga, shuningdek ish sharoitlari va usullari to'g'risidagi ma'lumotlarni buzib ko'rsatishga yo'l qo'ymasliklari shart.

## **28. Ushbu Kodeksga rioya qilish uchun komplaens dasturi**

Agar bunday tizim Biznes hamkorning mavjud tuzilmasida hali yaratilmagan bo'lsa, Biznes hamkorlar ushbu Kodeks masalalari bilan bog'liq dastur yoki tizimni yaratishga intilishlari shart. Bunday dastur yoki tizim ushbu Kodeksga muvofiqligini ta'minlash uchun ishlab chiqilishi kerak. Uning maqsadi ushbu Kodeks bilan bog'liq operatsion xavf-xatarlarni kamaytirish bo'lishi kerak. Bunday dastur yoki tizim doimiy takomillashtirish tamoyiliga asoslanishi kerak.

## **29. Qoidabuzarliklar haqida xabardor qilish**

Biznes hamkordan ushbu Kodeksning mumkin bo'lgan yoki ma'lum bo'lgan buzilishlari haqida zudlik bilan xabar berishlari talab qilinadi. Agar sizda ushbu Kodeks bo'yicha savollar tug'iladigan bo'lsa yoki uni kimdir buzgan deb hisoblasangiz, iltimos, Korxonaning komplaens bo'limiga ushbu elektron pochta manzili [compliance@tashkentsteel.uz](mailto:compliance@tashkentsteel.uz) orqali murojaat qiling yoki quyidagi telefon raqami orqali ishonch telefoniga qo'ng'iroq qiling: **+998-55 -503-88-68**. Barcha xabarlar tegishli tartibda ko'rib chiqiladi va zarur bo'lganda tergov olib boriladi. Muammo haqida xabar berib, to'g'ri ish qilishga uringan har qanday shaxs manziliga yo'llangan qasd Korxona tomonidan nomaqbul deb hisoblanadi. Guman qilinayotgan huquqbazarlik haqida vijdonan xabar bergen va muammo to'g'risida xabar bergani uchun keyinchalik qasd olish yoki boshqa javob berish tazyiqlariga duch kelgan shaxs bu haqda yuqoridaq aloqa kontaktlari orqali zudlik bilan xabar berishi kerak.